

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI

IYUN, 2025-YIL





O'ZBEKİSTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

I RESPUBLIKA ILMİY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERİALLARI

2025-yil, iyun

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-184-1

O'ZBEKISTON - 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 93 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 13-iyun

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lism istiqbollari" nomli I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarini birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lism, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-09-184-1

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

BIOLOGIYA FANLARI

Salimova Hilola

SUG'ORILADIGAN O'TLOQI-TAQIR TUPROQLARNING AGROKIMYOVIY TAVSIFI VA OZIQ MODDALAR ZARHIRASI (G'ijduvon tumani misolida) 5-10

IQTISODIYOT FANLARI

Kadirova Shaxnoza

YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARNING SALOHIYAT IMKONIYATLARINI BOSHQARISH 11-14

YURIDIK FANLARI

Rahmonov Abbos

ISTE'MOLCHILARGA YETKAZILGAN ZARAR UCHUN FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING XALQARO TAJRIBADAGI SHAKLLARI VA O'ZBEKİSTON QONUNCHILIGI BILAN SOLISHTIRMA TAHLILI 15-18

Ernazarova Feruza

SHAXSNI ERKIN RIVOJLANTIRISH HUQUQI: O'ZBEKİSTON KONSTITUTSIYASIDA IFODALANISHI VA XALQARO HUQUQIY NORMALAR BILAN UYG'UNLIGI 19-22

Donayeva Aziza

"ATROF-MUHİTNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDA SUN'İY INTELLEKTNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH" 23-29

Sobirov Temur

AUTSORSING, AUTSTAFFING VA XODIMNI BOSHQA ISH BERUVCHIGA VAQTINCHA XIZMAT SAFARIGA YUBORISH: HUQUQIY ASOSLAR, TA'RIFLAR VA O'ZBEKİSTONDAGI AMALIYOT 30-34

Тогаймуродова Камола

ИСТОРИКО-ПРАВОВОЕ РАЗВИТИЕ ИНСТИТУТОВ НОТАРИАТА И ГОСУДАРСТВЕННОЙ РЕГИСТРАЦИИ СДЕЛОК 35-38

Бобоева Муслима

ОСОБЕННОСТИ ПРАВОСПОСОБНОСТИ И ДЕЕСПОСОБНОСТИ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЯ 39-42

Tuymayev Asadbek

MEHNAT NIZOLARIDA DA'VO MUDDATLARI MILLIY VA XORIJY QONUNCHILIK 43-46

Nizomova Khosiyatkhon

PROHIBITION OF DISCRIMINATION IN NATIONAL LABOR LAW 47-49

Qadamov Javohirbek

RAQAMLI MAKONDA SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMoya QILISHNING HUQUQIY JIHATLARI 50-55

Ergashova Mamura

MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISHDA SUD TARTIBINING USTUVORLIGI: QONUNCHILIK NAZARIYASI VA SUD AMALIYOTI 56-60

Isaqulova Elmira

SMART-KONTRAKTLAR TERMINOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA AHAMIYATI 61-66

<i>Амирова Умидা</i>	
ПРОБЛЕМЫ ПРИОБРЕТЕНИЯ СТАТУСА АДВОКАТА ИНОСТРАННЫМИ ГРАЖДАНАМИ	67-70
<i>Xursanov Shamsiddin</i>	
XALQARO SAVDODA BARQAROR RIVOJLANISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR	71-74
<i>Fayziyev Xayriddin, Zokirkonov Zoxidjon</i>	
МЕХНАТ МУНОСАБАТЛАРИДА ATTESTATSIYA VA UNING HUQUQIY АНАМИЯТИ	75-78
<i>Исомухамедова Мадина</i>	
ОСНОВНЫЕ ФОРМЫ РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ С ПОМОЩЬЮ ТРЕТЬЕГО ЛИЦА: МЕДИАЦИЯ, ПРИМИРЕНИЕ И АРБИТРАЖ КАК ПРОЦЕСС, СПОСОБСТВУЮЩИЙ ПРЕКРАЩЕНИЮ КОНФЛИКТОВ	79-83
<i>Абдурахмонов Асадбек</i>	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ КОМПЛАЕНС-КОНТРОЛЯ В СИСТЕМЕ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ	84-87
TIBBIYOT FANLARI	
<i>Арипджанова Фарзона</i>	
ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ И ЛЕЧЕНИЯ БОЛЬНЫХ СД 2 ТИПА С МЕТАБОЛИЧЕСКИ АССОЦИИРОВАННОЙ ЖИРОВОЙ БОЛЕЗНЬЮ ПЕЧЕНИ (МАЖБП)	88-92

RAQAMLI MAKONDA SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISHNING HUQUQIY JIHATLARI

Qadamov Javohirbek Azizbek o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

E-mail: qadamoov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezis orqali raqamli texnologiyalar ommaviylashgan davrda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalalari yoritiladi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar tomonidan qoldirilayotgan axborotlar ruxsatsiz tarzda yig'ilishi, tarqatilishi yoki boshqa maqsadlarda ishlatalishi xavfini oshirmoqda. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni, Jinoyat kodeksining tegishli moddalari hamda xalqaro huquqiy tajribalar (Yevropa Ittifoqining GDPR reglamenti, AQSh va Rossiya qonunchiligi) tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli makonda huquqiy himoyani kuchaytirish, nazorat tizimlarini takomillashtirish hamda foydalanuvchilarning huquqiy savodxonligini oshirishga doir takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: shaxsiy ma'lumotlar, raqamli makon, axborot xavfsizligi, huquqiy himoya, ijtimoiy tarmoq, ruxsatsiz axborot tarqatish, "Shaxsiy doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun, GDPR, "data-localization" axborot huquqi, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi.

PROTECTION OF PERSONAL DATA IN THE DIGITAL SPACE: LEGAL ASPECTS

Kadamov Javokhirbek Azizbek ogli

Master's Student, Tashkent State University of Law

Abstract. This thesis explores the issues of personal data protection in the era of widespread digital technologies. The collection, distribution, or use of user-generated information on the Internet and social media without consent significantly increases the risk of data misuse. The study analyzes the Law of the Republic of Uzbekistan "On Personal Data," relevant articles of the Criminal Code, as well as international legal practices (including the GDPR of the European Union, and the legal frameworks of the United States and Russia). The thesis also presents proposals for strengthening legal protection in the digital environment, improving monitoring mechanisms, and enhancing users' legal awareness.

Key words: personal data, digital space, information security, legal protection, social network, unauthorized data distribution, Law on Personal Data, GDPR, data-localization, information law, social media user.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-184-1/uzb-11>

Raqamli texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan bir vaqtida kundalik hayotimizning deyarli barcha jabhalari internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilishiga o'r ganib qoldik. Bugungi kunda shaxsiy axborotlar – ism-familiya, yashash manzili, biometrik ma'lumotlar, joylashuv, fotosuratlar va shaxsiy yozishmalar – tez-tez raqamli makonda saqlanmoqda va almashilmoqda. Ushbu jarayon bir tomonidan qulayliklar yaratgan bo'lsa-da, ikkinchi tomonidan fuqarolarning shaxsiy hayoti daxlsizligini jiddiy tahdid ostida qoldiradi

Aholi tomonidan raqamli platformalardan keng foydalanishi, ijtimoiy tarmoqlarda faol ishtirok etilishi, shuningdek, axborot almashinuvining yuqori sur'atda o'sayotgani natijasida shaxsiy ma'lumotlarning ruxsatsiz tarzda tarqatilishi, o'g'irlanishi yoki noqonuniy ishlatalishi holatlari ko'paymoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt, "big data", bulutli texnologiyalar va algoritmik nazorat vositalarining rivojlanishi muammoni yanada murakkablashtiradi. Shu sababli ham

raqamli makonda shaxsiy ma'lumotlarning huquqiy jihatdan himoya qilinishi har qachongidan dolzarb va muhim masalaga aylanib bormoqda.

Axborotlashtirilgan jamiyatda shaxsiy ma'lumotlar insonning shaxsiy hayoti, sha'ni, qadr-qimmati va erkinligini bevosita aks ettiruvchi muhim axborotlar toifasiga kiradi. Bu ma'lumotlar orqali shaxs aniqlanishi, kuzatilishi mumkin bo'lgani sababli, ularning qonuniy asosda yig'ilishi, saqlanishi va ishlatalishini ta'minlash — demokratik huquqiy davlatlar oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyulda qabul qilingan "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, shaxsiy ma'lumotlar — bu ma'lum yoki aniqlanishi mumkin bo'lgan jismoniy shaxsga oid har qanday axborotdir¹. Bunga ism, familiya, pasport ma'lumotlari, moliyaviy va tibbiy holati, manzili, telefon raqami, biometrik yoki geolokatsion ma'lumotlar kiradi. Ushbu axborotlar davlat organlari, savdo-sotiq tuzilmalari, hatto oddiy foydalanuvchilar tomonidan ham muntazam tarzda qayta ishlanmoqda.

Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish zarurati, avvalo, insonning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida shaxsiy hayot daxlsizligi, yozishmalar, telefon suhbati va boshqa axborotlar sir saqlanishi huquqi kafolatlangan². Ushbu huquqlarning raqamli makonda ham samarali ta'minlanishi shaxs daxlsizligi va axborot xavfsizligi uchun muhim omildir.

Bugungi kunda inson faoliyati asosan raqamli makon orqali amalga oshirilmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar, elektron xizmatlar, onlayn do'konlar va bulutli texnologiyalar shaxsiy hayotga oid turli shaxsiy ma'lumotlarning doimiy aylanmasini shakllantirgan. Ushbu axborotlarning ko'pchiligi foydalanuvchi roziligidan yoki yetarli darajadagi axborot xavfsizligi choralar ko'rilmasdan ishlanmoqda.

Aholi orasida mashhurligi ortib borayotgan ijtimoiy tarmoqlar — Telegram, Instagram, TikTok, Facebook singari platformalarda foydalanuvchilarning suratlari, video yozuvlari, manzillari, geolokatsiyasi va shaxsiy yozishmalari keng miqyosda saqlanadi. Afsuski, ushbu platformalarda ruxsatsiz axborot tarqatish holatlari tobora ko'payib bormoqda. Bunga misol qilib, Telegramda noma'lum shaxslar tomonidan shaxsiy fotosuratlar yoki videolarning kanal va guruhlarga joylanishi, firibgarlar tomonidan telefon raqamlari va bank kartalari ma'lumotlarining tarqatilishi kabilarni keltirish mumkin.

Yana bir xavfli holat — dipseyk (inglizcha – "deepfake") texnologiyasi asosida boshqa birovning yuzini, ovozini sun'iy ravishda videoga qo'shish orqali shaxs sha'ni va obro'siga zarar yetkazishdir. Bu esa fuqarolarning huquqiy himoya vositalaridan foydalana olish darajasini sinov ostida qoldiradi.

Shuningdek, "phishing" (yolg'on xabarlar orqali shaxsiy axborotni qo'lga kiritish), "doxxing" (biror shaxs haqidagi barcha ma'lumotni jamoatchilikka oshkor qilish) kabi raqamli tahdidlar ham keng tarqalgan. Bunday harakatlar nafaqat shaxsiy hayot daxlsizligini buzadi, balki moliyaviy va psixologik zarar ham yetkazadi. Shu bois, axborot xavfsizligi masalasi faqat texnik muammo emas, balki huquqiy muhofazani talab qiluvchi dolzarb masala sifatida qaralishi lozim.

¹ "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun <https://lex.uz/docs/-4396419>

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/-6445145>

Ushbu tahdidlarning kuchayishi shuni ko'rsatadiki, shaxsiy ma'lumotlar ustidan nazoratni kuchaytirish va ularning tarqalishini huquqiy cheklash borasida jiddiy choralar ko'rish zarur. Aks holda, raqamli makondagi erkinlik, shaxs daxlsizligining buzilishi evaziga amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi raqamli sohadagi islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirayotgan davlat sifatida shaxsiy ma'lumotlar himoyasini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Chunki raqamli texnologiyalar keng joriy etilishi bilan birga, axborot xavfsizligi va fuqarolarning shaxsiy hayoti daxlsizligini ta'minlash masalalari dolzarb tus olmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida mazkur yo'nalish bo'yicha huquqbazarliklar uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Xususan, 141-moddada shaxsiy hayotga oid ma'lumotlarni qonunga xilof tarzda yig'ish yoki targatish, 146-moddada shaxsiy yoki oilaviy sirni fosh etish holatlari uchun jinoiy javobgarlik ko'zda tutilgan¹. Shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda ham ma'lumotlarni ruxsatsiz oshkor qilgan mansabdar shaxslarga nisbatan jarima va boshqa chora-tadbirlar nazarda tutilgan².

Axborot xavfsizligini ta'minlash borasida Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat qilish bo'yicha vakolatlari organlar, shuningdek, Shaxsiy ma'lumotlar subyektlarining huquqlarini himoya qilish uchun maxsus Davlat xizmatlari agentligi faoliyat yuritmoqda. Ushbu organlar orqali raqamli makonda faoliyat yuritayotgan tashkilotlar va platformalarning qonunlarga rionga etishi nazorat qilinadi.

Biroq amaliyotda qonunchilik talablarining to'liq bajarilmasligi, foydalanuvchilarining o'z shaxsiy ma'lumotlari ustidan nazorati sustligi va texnik imkoniyatlarning cheklanganligi sababli ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Shu bois, mavjud huquqiy asoslarni zamon talablari asosida takomillashtirish, ayniqsa, global platformalar bilan o'zaro huquqiy aloqalarni mustahkamlash muhim hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi tajribasi – GDPR (General Data Protection Regulation). 2018-yil 25-maydan boshlab kuchga kirgan GDPR reglamenti — shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish sohasida dunyo miqyosidagi eng mukammal normativ hujjatlardan biridir. U nafaqat Yevropa Ittifoqi davlatlari, balki Yevropada faoliyat yurituvchi barcha kompaniyalar va onlayn platformalar uchun majburiy hisoblanadi. Bu reglamentning asosiy tamoyillari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Rozilik asosida axborot yig'ish (consent-based data processing);
- Shaxsiy ma'lumotlarga kirish huquqi (right of access);
- Ma'lumotni o'chirish huquqi yoki "unutilish huquqi" (right to be forgotten);
- Ma'lumotlar uzatilishini cheklash;
- Avtomatlashtirilgan qaror qabul qilishdan himoya (profiling);
- Jarimalarning qat'iyligi — kompaniyalar yillik aylanmasining 4% gacha yoki 20 mln yevrogacha jarimaga tortilishi mumkin.

GDPR'da axborot xavfsizligini ta'minlash kompaniyaning majburiyati hisoblanadi. Har qanday ma'lumot sizib chiqishi haqida 72 soat ichida xabardor qilish talabi mavjud. Bu reglament huquqiy himoyani kengaytirish, shaxsiy ma'lumotlar ustidan foydalanuvchining nazoratini kuchaytirish, shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi <https://lex.uz/docs/-111453>

² O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi <https://lex.uz/docs/-97664>

Shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligida tajribaga ega va xavfsiz tizimni yarata olgan davlat AQSh tajribasiga to'xtalsak, ushbu mamlakatda sektorli yondashuv va shtat darajasidagi qonunchilik yo'lga qo'yilgan.

AQShda markazlashgan shaxsiy ma'lumotlar himoyasi tizimi mavjud emas. Buning o'rniga, soha va shtatlar bo'yicha bo'lingan, sektorli yondashuv amalda Muhim federal qonunlar – HIPAA – sog'liqni saqlash sohasidagi axborotlar (Health Insurance Portability and Accountability Act), FERPA – ta'lim sohasidagi ma'lumotlar (Family Educational Rights and Privacy Act), COPPA – bolalar ma'lumotlarini himoya qilish (Children's Online Privacy Protection Act) kabilalar asosida shakllantirilgan.

Shtat darajasida esa CCPA (California Consumer Privacy Act) – Kaliforniya shtatida 2018-yilda qabul qilingan bo'lib, u AQShdagi eng progressiv qonun hisoblanadi. U GDPRga yaqin tamoyillarni o'z ichiga olgan. Masalan, qonun foydalanuvchiga o'z shaxsiy ma'lumotlarini ko'rish, tuzatish va o'chirish huquqini beradi, shuningdek, foydalanuvchi ma'lumotining sotilishiga rozilik talab qiladi.

Bu borada yana bir muhim tajribaga ega davlatlardan biri sifatida Rossiya tajribasini keltirish mumkin. Unda markazlashtirilgan nazorat va "data localization" talablari amal qiladi. Rossiya Federatsiyasida shaxsiy ma'lumotlar himoyasi 2006-yildan beri amal qilayotgan Federal qonun bilan tartibga solinadi. Ushbu qonun bir nechta qat'iy talablarni o'z ichiga oladi.

Rossiyada shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha barcha ma'lumot operatorlari "Roskomnadzor" organida ro'yxatdan o'tishi, fuqarolarga tegishli ma'lumotlar esa mamlakat hududidagi serverlarda saqlanishi shart. Bu tizim kuchli markazlashtirilgan nazoratga asoslanadi, ba'zida ma'lumot erkinligini cheklashi mumkin bo'lsa-da, axborot xavfsizligi va davlat suverenitetini ta'minlash nuqtayi nazaridan samarali deb e'tirof etiladi.

Yuqoridagi uchta modeling har birida o'ziga xoslik bor. Yevropa – inson huquqlari va shaffoflikka urg'u beradi, AQSh – biznes erkinligini ustun qo'yadi, Rossiya esa davlat nazoratini kuchaytirishga e'tibor beradi.

O'zbekiston uchun bu tajribalar shuni ko'rsatadiki, raqamli makonda shaxsiy ma'lumotlar ustidan huquqiy nazoratni kuchaytirish, ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha texnik va qonuniy standartlarni uyg'unlashtirish, hamda fuqarolarning huquqiy ongini oshirish davlat siyosatining muhim yo'nalishi bo'lishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi shaxsiy ma'lumotlarni huquqiy himoya qilish bo'yicha asosiy hujjatlar mavjud bo'lsa-da, raqamli makonda yuzaga kelayotgan yangi tahdidlar ushbu normalarning amaliyotda samarali qo'llanilishini ta'minlashda bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Fuqarolar, ayniqsa ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari, o'zlarining shaxsiy ma'lumotlari ustidan qanday huquqlarga egaligini bilishmaydi. Shu sababli ular o'z rozilgisiz tarqatilgan ma'lumotlar ustidan e'tiroz bildirmaydi yoki qonuniy yo'l bilan da'vo qila olmaydi.

Telegram, Instagram kabi platformalar O'zbekiston qonunchiligiga to'liq bo'ysunmaydi. Bu esa axborot xavfsizligini ta'minlashda huquqiy vakolatlarning cheklanishiga olib keladi.

Shaxsiy ma'lumotlar operatorlari ustidan nazorat qiluvchi organlarning texnik imkoniyatlari va inson resurslari yetarli emas. Bu esa qonunbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishni qiyinlashtiradi.

Jazo choralar ham yumshoqligi qayd etish kerak. Ba'zi hollarda ruxsatsiz axborot tarqatish yoki shaxsiy hayotga tajovuz qilgan shaxslar faqat jarima bilan cheklanib qolmoqda. Jamoatchilik nazarida bu jazolar yetarli emasligi sababli huquqbazarliklar davom etmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda eng asosiy o'rinda fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy axborot bilan ishslash madaniyatini shakllantirish zarur. Maktab, oliy ta'lif muassasalari va ommaviy axborot vositalarida raqamli makonda xavfsiz xatti-harakatlarga doir targ'ibotlar kengaytirilishi kerak.

Platformalarga milliy qonunchilikka moslashish talabi bo'lishi kerak. Yirik xalqaro IT-platformalar O'zbekistonda faoliyat yuritish uchun vakolatli organlarda rasmiy vakillik ochishi, shaxsiy ma'lumotlarni mamlakat ichidagi serverlarda saqlashi (GDPR'dagi "data localization" modeli kabi) kerak.

Qonunchilikni kuchaytirish va yangilash:

"Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun qayta ko'rib chiqilib, unga unutilish huquqi, rozilikni qaytarib olish, avtomatlashtirilgan tahlildan himoya kabi zamonaviy normalar kiritilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, axborot xavfsizligini ta'minlash uchun sun'iy intellektga asoslangan avtomatik monitoring, shikoyatlarni tez ko'rib chiqish tizimlari, ma'lumotlar tarqalishini nazorat qiluvchi algoritmlar joriy etilishi lozim.

Ma'muriy va jinoiy javobgarlikni kuchaytirish, ya'ni, ruxsatsiz tarzda shaxsiy axborot tarqatganlarga nisbatan jazo choralarini og'irlashtirish va ularning ijtimoiy tarmoqlarda yana qayta faoliyat yuritishini cheklash mexanizmlari ishlab chiqilishi zarur.

Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bugungi kunda, shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi nafaqat texnik, balki huquqiy va ijtimoiy jihatdan ham dolzarb masalaga aylangan. Ijtimoiy tarmoqlarda va boshqa raqamli platformalarda ruxsatsiz axborot tarqatish, shaxsiy hayotga tajovuz qilish, ma'lumotlarni manipulyatsiya qilish holatlari inson huquqlarini jiddiy tarzda buzmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni, Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslari bu sohani tartibga soluvchi asosiy huquqiy manbalar hisoblanadi. Biroq amaliyotda ushbu normalarning samarali qo'llanilishida hali ko'plab muammolar mavjud. Xususan, huquqiy ongning sustligi, platformalar ustidan yetarli nazoratning yo'qligi, texnik imkoniyatlarning cheklanganligi va jazolarning yumshoqligi bu sohada huquqiy bo'shlislarni yuzaga keltirmoqda.

Yevropa Ittifoqining GDPR reglamenti, AQShning sektorli modeli hamda Rossiya Federatsiyasining data-localization talablari O'zbekiston uchun muhim tajriba manbai bo'la oladi. Shu asosda mamlakatimizda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga qaratilgan qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, zamonaviy tamoyillarni joriy etish, texnologik nazorat tizimlarini kengaytirish va foydalanuvchilarning axborot xavfsizligi madaniyatini oshirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, raqamli makonda shaxsiy ma'lumotlarni huquqiy himoya qilish samaradorligi faqat qonunlarning mavjudligi bilan emas, balki ularning real hayotda to'laqonli ishslashiga xizmat qiluvchi tizimlarning faoliyatiga, fuqarolarning ongli ishtirokiga va davlatning strategik yondashuviga bog'liq.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 2-iyul, O'RQ-547-son. — <https://lex.uz/docs/4409756>
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1992-yil 8-dekabr. — <https://lex.uz/docs/100841>
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. — <https://lex.uz/docs/111457>
4. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. — <https://lex.uz/docs/97661>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4796-son qarori. "Axborot xavfsizligini ta'minlash sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 11-avgust. — <https://lex.uz/docs/4944386>
6. General Data Protection Regulation (GDPR). Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council, 27 April 2016. — <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2016/679/oj>
7. California Consumer Privacy Act (CCPA), California Civil Code §§ 1798.100 – 1798.199 (2018). — <https://oag.ca.gov/privacy/ccpa>
8. Health Insurance Portability and Accountability Act (HIPAA), 1996. — <https://www.hhs.gov/hipaa/index.html>
9. Children's Online Privacy Protection Act (COPPA), 1998. — <https://www.ftc.gov/legal-library/browse/rules/childrens-online-privacy-protection-rule-coppa>
10. Federal Law of the Russian Federation No. 152-FZ "On Personal Data", 27 July 2006. — <https://www.rkn.gov.ru/docs/pd152-fz.pdf>
11. Roskomnadzor – Federal Service for Supervision of Communications, Information Technology and Mass Media. — <https://rkn.gov.ru/>
12. Davlat xizmatlari agentligi (O'zbekiston Respublikasi). — <https://davxizmat.uz>
13. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (O'zbekiston Respublikasi). — <https://mitc.uz>
14. Feruza A. & Karimov J. "Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishda xalqaro huquqiy yondashuvlar." O'zbekiston huquqshunoslik jurnali [2021, 2-4, 34–41-betlar].
15. Yakubova D. "Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlashning dolzarb masalalari." Huquq va Jamiyat, [2022, 1-1, 25–30-betlar].

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, 13-iyun

Mas'ul muharrir:

F.T.Isanova

Texnik muharrir:

N.Bahodirova

Diszayner:

I.Abdihakimov

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.
– Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 93 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 13-iyun

ISBN 978-9910-09-184-1

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.